



**MÁMLEKETLIK AKTIVLERDI BASQARÍW AGENTLIGININ’
QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ AYMAQLÍQ BASQARMASÍ**

B U Y R I G’ I

2023-jil 25-avgust

№143

No’kis qalasi.

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining
2023-yil 17-avgust kungi 221-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-avgustdagi “2023-2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-260-son qarori ijrosini tashkil etish bo‘yicha Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 17-avgust kungi 221-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-avgustdagi “2023-2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-260-son qarori ijrosini tashkil etish bo‘yicha Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 17-avgust kungi 221-sonli buyrug‘i ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Quyidagilar:

2023-2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sanoatini kompleks rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” hamda respublikada uzumchilikni rivojlantirish kengashi tasdiqlanganligi;

Iste’mol va texnik etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatini litsenziyalash komissiyasi tarkibi ma’qullanganligi;

Ochiq elektron auksionda yangi uzum plantatsiyalarini yaratish uchun yerlarni joylashtirish belgilanganligi;

“O‘zdonmahsulot” AK (keyingi o‘rinlarda - Kompaniya) tizimidagi korxonalariga tegishli 20 ta urug‘lik don tayyorlash sexlarini ushbu korxonalarining Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi oldidagi qarzdorligini (ular bo‘yicha hisoblangan penyalar, shuningdek, obyektning o‘tkazish natijasida yuzaga keladigan soliqlarni ham inobatga olgan holda) obyektning baholangan qiymati miqdoriga kamaytirish hisobiga Urug‘chilikni rivojlantirish markaziga tekinga berish va to‘liq modernizatsiya qilish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilganligi;

Kompaniya belgilangan tartibda tugatilgunga qadar boshqa binoga ko‘chirilishi, bunda, bino-inshootlar ulaming baholangan qiymatiga jamiyatning Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi oldidagi qarzdorligini kamaytirish hisobiga davlat

mulki sifatida operativ boshqaruv huquqi asosida tekinga o'tkazilishi belgilanganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi F-26-son farmoyishi hamda Davaktiv agentligining 2023-yil 7-avgustdagi 123/10-2-qr-son qaroriga muvofiq, Kompaniyaning markaziy apparati Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Abay ko'chasi, 6-uyda joylashgan binoning 4-qavatiga (umumiy maydoni 1 037 kv.m) joylashtirilganligi malumot uchun qabul qilinsin.

3.Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassis v.v.b (G.Urazbayeva) mazkur buyruq nusxalarini boshqarmaning tegishli bo'limlariga yetkazilishini ta'minlasin.

4.Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish boshqarma boshlig'i o'rinbosari A.Mnajovga yuklatilsin.

Boshqarma boshlig'i



M.Radjapov